

## TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIGA INTEGRATSION YONDASHUV.

Usmonova Muxlisaxon Sobirovna,

Qo`qon DPI dotsenti

E-mail: [usmonovamuxlisaxon@gmail.com](mailto:usmonovamuxlisaxon@gmail.com)

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limda texnologiya darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi yoritib berilgan.

**Tayanch so`zlar:** inklyuziv, integratsiya, texnologiya, ona tili, matematika, tasviriy san'at, tabiatshunoslik, tarix, nazariya, amaliyot.

## КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К УРОКАМ ТЕХНОЛОГИИ.

Усманова Мухлисахан Собировна

доцент Кокандского ДПИ

E-mail: [usmonovamuxlisaxon@gmail.com](mailto:usmonovamuxlisaxon@gmail.com)

### Аннотация:

В данной статье освещается интеграция уроков технологии с другими предметами в инклюзивном образовании.

**Ключевые слова:** инклюзивно, интеграция, технология, родной язык, математика, изобразительное искусство, наука, история, теория, практика.

## INTEGRATED APPROACH TO LESSONS OF TECHNOLOGY.

Usmanova Mukhlisakhan Sobirovna,

assistant professor of Kokand DPI

E-mail: [usmonovamuxlisaxon@gmail.com](mailto:usmonovamuxlisaxon@gmail.com)

**Annotation:** This article highlights the integration of technology lessons with other subjects in inclusive education.

**Key words:** inclusive, integration, technology, mother tongue, mathematics, visual arts, science, history, theory, practice.

So'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani madaniyatining ilg'or yutuqlarini jamlagan, o'tmish ajdodlarimiz aql-zakovati mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. "Integratsiya" so'zi lotincha integration-tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi.

- birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;  
- ikkinchidan tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Rossiyada va chet elda integratsiyalashgan ta'lim chuqur ajralib turadi. N.M.Nazarova ishida bu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi: "Eng umumiy shaklda, maxsus pedagogikaga nisbatan "integratsiya" jarayonni anglatadi. Nogironlar va nogiron jamiyatining boshqa a'zolari natijasi va holati, razvedka, sezgi sohasi va boshqalar, ijtimoiy jihatdan ajralib turmagan yoki yakkalanmagan, ijtimoiy hayotning barcha turlari va shakllarida birgalikda va qolganlar bilan teng asosda qatnashish. Ta'lim tizimida, uning barcha darajalarida integratsiya haqiqiy degan ma'noni anglatadi va rivojlanish muammolari bo'lgan bolalar, o'smirlar va yoshlar uchun minimal cheklovchi alternativning e'lon qilingan imkoniyati emas, ta'lim yoki maxsus ta'lim muassasasida, yoki teng imkoniyatli, umumiy ta'lim muassasasida, masalan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi".



N.M. Nazarova bu atamani quyidagicha qayd etadi integratsiya noaniq va o'zgaruvchan talqinlarga ega. Jamiatda rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalariga integratsiyalashuvini o'rganish odatda yaxshi rivojlanayotgan tengdoshlari bilan bir xil imkoniyatga ega bo'ladilar. M.I. Nikitina, integratsiyalashgan ta'lim, Rossiya Federatsiyasi qonun loyihasiga asoslanib, o'z ta'rifini beradi "Maxsus ta'lim to'g'risida" (Ostida integratsiyalashgan ta'lim tushuniladi) qo'shma shaxslarni o'qitish jismoniy va (yoki) ruhiy nogironlar va bunday nogiron bo'lmagan shaxslar, maxsus vositalar, usullar yordamida va mutaxassis o'qituvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Shunga o'xshash ta'rif bilan integratsiyalashgan ta'limga Stepanov: «G'ayritabiiy bolalar uchun integratsiyalashgan ta'lim - o'rganish va aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim tizimi muassasalarida normal rivojlanayotgan bolalar bilan birga tarbiyalash deb ta'rif beradi.

Inklyuziv ta'lim (fr. inclusif-shu jumladan, lot. kiritish - men xulosa qilaman, men o'z ichiga olaman) - barcha bolalarning har xil ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limning rivojlanish jarayoni, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Inklyuziv ta'limda Texnologiya fani mashg'ulotlariga integratsion yondoshuvni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

O'quvchilar matematika darslarida o'rgangan son, sanoq son yig'indi, ayirma, mavzularini Texnologiya darsida ishlatishi mumkin. Masalan: O'quvchilar bir necha gul yaproqlarini sanab chiqib qirqadilar. Gullarni qirqishda sanoq asosida doira shakllari chizib qirqiladi. Barcha olingan bilimlar Texnologiya darsida mustahkanlanadi.

Ona tili darslarida o'rgangan mavzular Texnologiya darslarida ham qo'llash mumkin. Masalan: Sifat mavzusi Texnologiya darsining ko'p mavzularida qo'llanadi. Orttirma, qiyosiy daraja, kamaytirma musbat tushunchalar bo'ladi. Ranglarni bir-biridan farqi: Qizil, qip-qizil, qizg'ish, katta, kattaroq, kichikroq. O'qish darslarida masal, ertak, sh'er, hikoya o'qishadi. O'rganilganlar asosida Texnologiya darsida applekatsiya yasash mavzusi bo'ladi. Masalan: I-sinflarda „Bo'g'irsoq“, „Sholg'om“ ertaklari asosida applekatsiya yasaladi. Applekatsiyani bajarishdan oldin o'quvchi tomondan ertak so'zlab beriladi.



Tabiyatshunoslik fani bilan bog'liqligi darslarda o'quvchilar tabiat in'om etgan barglar, urug'lar, mevalar, postloq, daraxt shoxlari, parranda patlari, loylardan o'yinchoqlar, applikatsiyalar yasashadi.

Tarix fani bilan bog'liqligi qog'oz mavzusini o'tishda uning kelib chiqishi tarixi, kuiolchilk, naqqoshlik, kashtachilik, misgarchilik, yog'ochsozlik tarixi haqida o'quvchilarga tushuncha beriladi. Bunda o'quvchilarga milliy an'analarimizga nisbatan muhabbat uyg'otishadi.

Tasviriy san'at darsi bilan Texnologiya darsi chambarchas bog'liqdir. Bu ikki fan har doim bir-birim to'ldirib boradi. Chunki yasalgan narsa tasviri oval chiziladi. Shu chiziqlar asosida kerakli shakllar qirg'iladi.

Pedagogika fani ta'lim-tarbiya usullarini o'rgatuvchi fan bo'lganligi sababli Texnologiya darsi bilan doim bog'liq.

Psixologiya fani o'quvchilarning yosh xususiyatlarini bilgan holda Texnologiya darsini olib boradi. Texnologiya har bir narsani yasattirayotganda o'quvchilarning ruhiy jarayonini hisobga olish zarur.

O'lkamiz tarixi bu fan bilan bog'liqligi o'quvchilarni atrofda bo'ladigan barcha yangiliklar o'quvchilarni yangi bilimlar asosida dars o'tishga ularni fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga, ekskursiyalar tashkil qilish va ekskursiyalar asosida ko'rgan narsalarni bajarishga o'rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. *JournalNX*, 7(03), 223-226.
2. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.
3. Gulomovna, I. M., & Sobirovna, U. M. (2022). IMPROVING THE FIELD OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE SPECIALTY OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
4. Ибрагимова, М., Усмонова, М., & Юсуфходжаева, Ф. (2022). This article discusses the idea that preparing students for work at the current stage of education is one of the most important issues in the education and upbringing of



the younger generation. Texnologik ta'limni innovatsion tashkil etish. Общество и инновации, 3(5/S), 153-157.

5. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
6. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
7. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
8. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

